

REGISTON MAYDONIDAGI XATTOTLIK SANATI VA BUYUK TEMURIYLAR IMPERIYASI.

Fayzullayeva Xursheda

Registon ansambli gid ekskursovodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14293360>

“Mulk Allohnikudur , Boqiylik Allohga xos , Allohga shukr “ ushbu muqaddas soʻzlar Tillakori masjidi peshtoqida bitilgan . Masjid XVII asrda Samarqad hokimi va qolaversa Buxoro xonligining bosh qomondoni Yalangtushbiy Bahodir tarafidan qurilgan. Buyuk ajdodlarimiz bilan doimo faxrlanamiz ! Ular qoldirgan meros bizning oʻzligimizni doimo yodga solib turadi. Ajdodlarning shonu shavkatidan darak beruvchi terixdan bizgacha yetib kelgan meroslardan eng goʻzali Registon madoni desak mubolagʻa boʻlmaydi albatta.

Registon maydoni oʻzida toʻrt asrlik tarixni jamlagan salobatli obida! Registon maydonida Ulugʻbek madrasasi, Sherdor madrasasi , Tillakori masjidi va Shayboniyar daxmasi qad rostlagan. Bu sirli maydon yozuvlarini oʻqish bizga ota bobolarimizning madaniyati , dini , maqsadini yoritib beradi . Misol uchun Ulugʻbek madrasasini olaylik . Ulugʻbek madrasasi maydondagi eng birinchi qad rostlagan oliy taʼlim maskani boʻlib XV asrdan XX asr boshlarida ish faoliyati olib brogan . Oʻzbekistonning II renesansi davri boʻlmish XIV – XV asrlarda ilm rivojlanib mamlakatimiz hududlarida renesans vujudga kelgan buning asosiy sababi : Amir Timur tarafidan olib kelingan olimlar , qimmatbaho kitoblar , xazina va albatta Mirzo Ulugʻbekning jonkyarligi va ilm ortidan “ sher “ kabi quvib kamolotga erishganligi va xalqni ilmga undaydi. Hadisi shariflarda ham ilm ulugʻlanadi. Bir soatlik ilm tuni boʻyi qilingan toat ibodatdan ustun deyiladi. Mirzo Ulugʻbek tolibi ilmlarni ilhomlantirishda aynan oʻsha hadislardan foydalangan va hattoki har bir xujraning eshigi yuqorisida hadis yozdirtirgan va hadislarga hurmat koʻrsatilsin uchun eshiklarni past qildirib shoxu- gadoni hadisga bosh egishlariga undagan.

Ulugʻbek madrasasi yozuvlari judaham ajayib . Islom olamida taraqqiyotga erishgan Movoraunnahr deb nomlangan buyuk yurt dan dunyoga dong taratgan olimlar chiqqan . Madrasadagi yozulardan birida ilm ulugʻlanadi va uni izlovchilar math etiladi . Ulugʻbek madrasasining chap tarafdagi kirish qismida yozilgan : Allohning nomi bilan oʻqi soʻzi ham bunga yaqqol misoldir . Bu soʻz shuni bildiradigi Alloh ilmga davat etadi.

Ulugʻbek madrasasi peshtoqida “ Dunyo manzillarini yuksalishiga asos solishning afzali va oxirat maydoni , qurilishi mustahkamligiga erishishning eng mukammal yoʻli – hidoyat va ilm qoidalarini tuzish , shariat va fatvo

maskanlarini bunyod etish , xususan , olimlar makon qiladigan shunday oliy maqomlarni bino qilishdur”

Ushbu madrasalarning qurilishidagi asosiy sabab bu Alloh taoloning marhamatiga erishishdur . Alloh taoloning bizga bergan marhamati shunchalik ko’p u narsalarni o’z vaqtida qadriga yetmaymiz . Temuriylar saltanatida Islom dinu ustun bo’lib xizmat qilgan aynan Amir Timur , Shoxrux Mirzo , Mirzo Ulug’bek davrida Islom saltanatni gullatib yashnatgan. Buyuk sultonlar Allohning marhamatidan umidvor bo’lgan holda ko’rkam bog’u rog’lar yaratgan , go’zal madrasayu – masjidlar , saroylaru karvonsaroylar qurdirib mamlakatni mustahkamlagan . Ilm ahli doimo ulug’langan va ularga katta – katta sovg’a salomlar in’om etilgan .

Alisher Navoiy tomonidan Mirzo Ulug’bekka ajoyib ta’rif berilgan bo’lim Alisher Navoiy bu sherlarni Ulug’bek madrasasida o’qiganda yozgan.

Tumerxon naslidan sulton Ulug’bek

Ki olam ko’rmadi Sulton aningdek

Rasadkim bog’lamish zebu jaxondin

Jaxon ichra yana bir osmondir

Bilib bu nav ilmi osmoniy

Ki , ondin yozdi " Zini Ko'ragoniy "

Qiyomat deguncha ahli ayyom

Yozurlar oning ahkomidan ahkom .

Ushbu sherda ham Mirzo Ulug’bekning qanchalik kuchli shaxs bo’lganligi aks etgan.

Registon maydonida aks etgan yozuvlar insonlarni ilm olishga hayotdagi qiyinchiliklarga qaramasdan doimo iymonda mahkam turib bilimga intilishga undaydi . Buyuk ajdodlarimiz bo’lmish Mirzo Ulug’bek va Yalangtushbiy Baxodir bunga yaqqon misoldesak adashmagan bo’lamiz .

Adabiyotlar:

1. Ma’naviyat yulduzlari, T., 1999.

